

11. Qizi, U. S. B. (2022). The role of video production in modern pedagogical technologies.

12. Хасанов, А. А., & Ўроқова, Ш. Б. Қ. (2021). Цифровизация образования на современном этапе развития информатизированного общества. Scientific progress, 2(1), 300-308.

13. Qizi, U. S. B. (2021). Digitization Of Education At The Present Stage Of Modern Development Of Information Society. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 95-103.

14. Bakiyeva, Z. (2022). Teaching the steps of creating animation to students in higher education institutions. Академические исследования в современной науке, 1(17), 226-227.

15. Bakiyeva, Z. R. (2022). Teaching computer animation to students through an electronic learning platform. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 26-28.

## **AXBOROT TEXNALOGIYALARINING TA'LIM JARAYONI SIFATINI OSHIRISHDAGI O'RNI**

*O'roqova Sharofat Bahodir qizi-Nizomiy  
nomidagi TDPU Axborot texnologiyalari  
kafedrasida katta o'qituvchisi*

*Yo'ldoshova Zulxumor Mirkomil qizi-  
Nizomiy nomidagi TDPU Axborot tizimlari  
va texnologiyalari 2-bosqich talabasi*

Bugungi kunda rivojlanib kelayotgan O'zbekistonda ta'lim sohasiga ham alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lim sohasini rivojlanishida esa axborot texnologiyalari alohida o'rin tutadi. Sezib turganingizdek faqat ma'ruzaga asoslangan dars jarayoni ham eskirib asta sekin yo'qolib bormoqda. Bunga asosiy sabab esa axborot texnologiyalarining tez sur'atda rivojlanib borishi va ommalashib ketishidir. Axborot texnologiyalari rivojlanayotgan bir paytda dars jarayoni rang-barang va turli qiziqarli metodlar bilan boyitib o'tilmasa talabalar qiziqishi va

e'tiborini tortish anchagina murakkab masaladir. Shunday ekan axborot texnologiyalari ta'lim jarayoniga pedagogik bilimlar va axborot texnologiyalarini tatbiq etishni yanada rivojlantirish, professor-o'qituvchilarni pedagogik bilimlarini oshirish, hamda xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rgangan holda ularni O'zbekiston ta'lim tizimida ham joriy etish imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'limning biror o'quv fanini to'liq ravishda yoki uning qaysi qismini AKTdan foydalanib o'tsa qanday samara berishi, yoki AKTni qo'llashning pedagogik tamoyillarini, uning psixologik xususiyatlarini, uning bilish jarayoniga ta'sir qilish mexanizmi va omillari, shuningdek yana boshqa ko'p jihatlarini kompleks tatqiq qilish dolzarb bo'lib bormoqda. Bu esa ta'lim tizimida, xususan ta'lim jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish, o'quv uslubiy taminotni rivojlantirish, ayniqsa o'quv mashg'ulotlarini o'tish va o'zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha mazmun va mohiyat shakllanishiga asos yaratmoqda.

Ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalarni, shu jumladan multimediyali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining interfaol o'zaro aloqalarini ta'minlash, multimedialiy o'quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo'ladi. Multimedia axborotlarni har xil ko'rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko'rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi.

Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi. Ta'lim tizimida multimedia texnologiyalari nazariy, amaliy, ko'rgazmali, ma'lumotli, trenajyorli va nazorat qismlarini birlashtirish yo'li bilan o'quvchilarga ijobiy va samarali ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi.

### **Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarida foydalanishning afzalliklari:**

- dars jarayonida o'quvchilarga taqdim qilinayotgan o'quv materiallarini takroriy namoyish qilish imkoniyati mavjudligi;
- amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish imkoniyatining mavjudligi;
- ta'lim oluvchilar o'zlashtirish darajasining yuqori bo'lishligi;
- ta'lim oluvchilarning individual bilimlarini baholash, nazorat qilish va boshqa imkoniyatlarni mavjudligi;
- o'quv materiallardan ommaviy tarzda foydalanish ya'ni, tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir necha auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- masofaviy o'qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish;

Axborotlashgan jamiyat ehtiyojini qondiruvchi zamonaviy darslik – axborot ta'lim muhitining asosi sifatida uning tamal toshidir. Odatdagi qog'oz variantidagi darslik bilan unga asoslangan elektron versiyadan birgalikda foydalanish hozirgi zamon uchun odatiy hol hisoblanadi. Bundan shu aniqki, elektron shaklda ham, bosma variantdagi nashr muhim emas, muhimi qanday shaklda bo'lmasin kerakli majmualar, mashqlar to'plamlari, tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan o'quv-uslubiy majmua bo'lishi mumkin.

### **Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlari sifatini oshirishda quyidagi faktorlar muhim:**

- yangi texnologiyalar, o'quvchi va o'qituvchilarga innovatsion pedagogik usullar bilan ta'lim olish va o'qitish imkoniyatlarini beradi.
- axborot texnologiyalari orqali o'quvchi, ma'lumotlarni faollashtirish uchun real va virtual jihatlarni birlashtirishadi, ma'lumotlarni amaliyotga o'tkazish va ijtimoiy ta'lim imkoniyatlarini yaratadi.
- o'quvchi va o'qituvchilar, boshqa davlatlardagi o'quv markazlari, o'qituvchilar va talabalarga onlayn bog'lanish orqali global hamkorlik o'rnatishlari mumkin bo'ladi.

- axborot texnologiyalari, har bir o'quvchi uchun maxsus masofaviy o'quv modelini taqdim etadi, bu saytda o'quvchi uning o'zining o'z sohasiga yo'naltirilgan ta'lim reja va dasturalari bilan tanishishi mumkin.

- axborot texnologiyalari o'quvchilarning o'z vaqtlarida, o'z joylarida va internet orqali ta'lim olishlari va o'quvchilarning qulayligini oshirish uchun interaktiv darsliklar, o'quv platformalari, ta'lim o'yinlari va boshqalarni taklif etadi.

Axborot texnologiyalarining ta'limga oid bu muhim faktorlari O'zbekiston ta'lim tizimining yanada rivojlanishi va o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini yuksak darajada oshirishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoni sifatini oshirishdagi o'rni juda katta ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalar yordamida ta'lim sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lib borish, o'quvchilarga yanada tushinarli, qiziqarli, interaktiv va samaraliroq dars tashkil qilish mumkin. O'quvchilarda axborot texnologiyalari yordamida online platformalar, veb-saytlar va ilovalar orqali elektron dars materiallaridan foydalanish, mantiqiy o'yinlar yaratish, onlayn vebinarlar tashkil etish, turli chatlar orqali masalalar yechib borish hamda o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarni mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari axborot texnologiyalari orqali o'zlarining bilimlarini sinab ko'rish, fikrlarni almashtirib ko'rish va tajriba almashishlari mumkin. Shuningdek, ularning muammolarni hal qilishda internet resurslaridan foydalanishi hamda onlayn savollar yoki vazifalar orqali malakasini tekshirib borish ham mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. "Ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish" Ismoiljonova Mohigul Hikmatillo qiz - «Научный Фокус»

2. "AKT rivojlangan davrda ta'lim boshqaruvida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish usullari" A. Ilhomjon - Научный Фокус, 2023

3. "Dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni" I. Aldashev, S. Aldasheva -AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF, 2022

4. “Axborot texnologiyalaridan ta’lim jarayonini tashkillashtirishda foydalanish” Adiba Shamshidin qizi Isoqova - SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021

5. Abduxakimovna, A. S. (2021). Use of multimedia technologies in the development of intellectual skills of students of pedagogical higher education institutions. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 8(1), 1483-1488.

6. Абдурахманова, Ш. А. (2014). Об одном аспекте профессиональной направленности обучения математике в профессиональных колледжах. *Молодой ученый*, (10), 337-339.

7. Elmurzaevich-TSPU, M. O., & Rustamovich, A. J. (2019). The benefits of using information technology in the education system. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

8. Мамаражабов О.Э “Булутли технологиялар асосида тармоқ сервисларидан фойдаланиш” KASB-HUNAR TA’LIMI Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal 2022-yil, 3-son б. 24-27.

9. Ilyich, M. E. (2023). Big data analysis in education. *World Bulletin of Management and Law*, 23, 74-76.

10. Muratov, E. I. (2020). Improving the quality of the educational system of higher educational institutions by means of the involvement of students in the educational process with the use of analytical possibilities of neural network technologies. *Theoretical & Applied Science*, (9), 21-23.

11. Bagbekova Laylo Kadirbergenovna. (2022). Teaching computer graphics as a pedagogical problem on the basis of massive open online courses in information conditions. *World Bulletin of Social Sciences*, 8, 71-74.

12. Bagbekova Laylo Kadirbergenovna. (2023). Teaching computer graphics on the basis of modern methods as a pedagogical problem in the conditions of digital education. *World Bulletin of Management and Law*, 23, 52-55. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2871>

13. Bahadirovna, S. D. (2022, February). Enrich educational content through multimedia resources using digital technologies. In Conference Zone (pp. 220-221).

14. Uroкова, S., & Tuhtashev, U. (2019). Trends of electronic education development. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(12), 768-771.

15. Uroкова, S. B. (2020). Advantages and disadvantages of online education. ISJ Theoretical & Applied Science, 09 (89),34-37.

16. Bakiyeva, Z. (2022). Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga animatsiya yaratish qadamlarini o'rgatish. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke , 1 (17), 226-227.

17. Bakiyeva, Z. (2022). Teaching the steps of creating animation to students in higher education institutions. Академические исследования в современной науке, 1(17), 226-227.

## **BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARGA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Ramazonov Xusniddin Saidaxmadovich*

*Nizomiy nomidagi TDPU tayanch*

*doktoranti*

Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish uchun ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning o'ziga xos talablari mavjud. Birinchidan, o'quvchi talabalarning kasbiy bilimlarini o'zlashtirish darajasi davlat ta'lim standartlari talablariga mosligini ta'minlash bilan bog'liq. Ikkinchidan, o'quvchi talabalarning mustaqil ijodiy faolligini davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini to'liq qamrab olishga erishish. Jamiyatning bu tarzda jadal rivojlanishi, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoji o'qituvchidan intellektual qobiliyatlarini namoyon qilgan holda, ijtimoiy talablarni qondirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi ““Raqamli O'zbekiston-2030” stategeyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-